XALQ DEPUTATLARI ANGREN SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 8-iyun VI-83-60-10-148-K/24 Angren shahar

Angren shahar hududidagi geografik obyektlar (qabristonlar)ning nomlarini davlat reyestriga kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash sohasidagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish hamda samarali amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-moddasiga asosan, Xalq deputatlari Angren shahar Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha shahar hokimining maslahatchisi N.Nazarovaning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Toshkent viloyat komissiyasining 2024-yil 26-apreldagi 1/12-4-2057-sonli yig‘ilish bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Ekspert komissiyasining 2024-yil 17-apreldagi 05-19-04-980-sonli ekspert xulosasi asosida Angren shahar hududidagi 8 ta geografik obyektlar (8 ta qabristonlar)ning nomlari bo‘yicha takliflar qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilib, geografik obyektlarning nomlarini davlat reyestriga kiritish to‘g‘risida taklif ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar Statistika bo‘limi (Sh.Abdukarimov), Kadastr Agentligi Toshkent viloyati boshqarmasi Angren shahar bo‘limi (Sh.Boymuratov), shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (Sh.Ortiqov), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Angren shahar bo‘limi (Z.Xodjimatov) hamda tegishli mutasaddi

davlat organlari rahbarlari amaldagi tartibda nom berilgan geografik obyektlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazasini shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi:

- Xalq deputatlari Angren shahar Kengashining 2022-yil 15-sentabrdagi VI-49-65-10-148-K/22-sonli,2023-yil 12-apreldagi VI-59-24-10-148-K/23-sonli, 2023-yil 12-apreldagi VI-59-25-10-148-K/23-sonli, 2023-yil 24-noyabrdagi VI-71-111-10-148-K/23-sonli qarorlari ijrosi yuzasidan bir oy muddatda Xalq deputatlari shahar Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga hisobot taqdim etsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga, shuningdek, qaror ijrosini ta’minlash Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

RAYIMOV ALISHER
ABDUMALIKOVICH

Xalq deputatlari Angren shahar
Kengashining
2024-yil 8-iyundagi
VI-83-60-10-148-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasining Angren shahar hududidagi geografik obyektlar (qabristonlar)ning nomlarini davlat reyestriga kiritish to‘g‘risidagi taklifi

t/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Shahar komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Nomi muvofiq deb topildi
1	2	3	4	5	6
Qabristonlar					
1	Qabriston	“Obliq” MFY	Obliq – 2	Eski Obliq	Eski Obliq qabristoni
2	Qabriston	“Jigariston” MFY	Jigariston- 3	Eski Jigariston	Eski Jigariston qabristoni
3	Qabriston	“Jigariston” MFY	Jigariston- 4	Katta Jigariston	Katta Jigariston qabristoni
4	Qabriston	“Nishbosh” MFY	Nishbosh-2	Eski Nishbosh	Eski Nishbosh qabriston
5	Qabriston	“Nishbosh” MFY	Nishbosh-3	Quyi Nishbosh	Quyi Nishbosh qabristoni
6	Qabriston	“Lashkarak” MFY	Lashkarak-2	Eski Lashkarak	Eski Lashkarak qabristoni
7	Qabriston	“Obod” MFY	Ohunboboyev -2	Eski Obod	Eski Obod
8	Qabriston	“Chinniobod” MFY	Keremicheskiy-Xristianlar	Eski Chinniobod -Xristianlar	Eski Chinniobod-Xristianlar qabristoni